

YAPON VA O'ZBEK TILLARIDA BOG'LOVCHILAR XUSUSIDA

TDSHI Uzoq Sharq va JOT tillari fakulteti

Magistratura mutaxassisligi

Lingvistika (yapon tili) yo`nalishi

I-bosqich talabasi Malikova Sitorabonu

Annotatsiya

Maqolada yapon va o'zbek tillaridagi bo'g'lovchilar muammosiga bag'ishlangan. Maqolada bo'g'lovchilar va ularning turli haqida ham ma'lumot berilgan. Maqolada yapon va o'zbek tillaridagi bo'g'lovchilarni qo'llanilshi orasidagi farq misollar yordamida ochib berilgan.

So'z va gaplar orasida grammatik munosabatlarni ifodalashda yordamchi so'zlar yetakchi rol o'ynaydi. Mustaqil so'zlar orasidagi grammatik munosabatlarni yoki ularga qo'shiladigan modal ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladigan va mustaqil holda biror gap bo'lagi vazifasini bajarmaydigan so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi.

Ma'lumki, tilshunoslikda yordamchi so'zlar uch turga bo'linadi:

1) bog'lovchilar; 2) ko'makchilar; 3) yuklamalar.

Yapon va o'zbek tillaridagi bog'lovchilar haqida gapirishdan oldin, avvalo, ularning kelib chiqishi va tipologiyasini bilan tanishish lozim. Ma'lumki, tillarning geneologik tasnifi ana shu qardosh bo'lgan tillarni aniqlash maqsadida vujudga keladi. Yapon tili, bu tilning geneologik tavsiflanishi haqida olimlar uzoq davrdan beri bosh qotirib kelgan va hozirgacha bu izlanish davom etib kelmoqda. Ayrim manbalar shuni ko'rsatadiki, yapon tili Oltoy tillar oilasiga kirishi taxmin qilinadi¹. U alohida til guruhi hisoblanib, boshqa til guruhi tarkibiga kirmaydi.

Yapon tilining sintaksisi, ayrim grammatik tuzilishlar Oltoy tillar oilasiga yaqinligini ko'rsatsa-da, fonetik jihatdan esa Avstro-Osiyo tillariga ancha yaqindir². O'zbek tili esa Oltoy tillar oilasi, turkiy tillar turkumiga kiradi.

Tillarni tipologik jihatdan tavsiflashda esa, yapon tili haqida olimlar turlicha yondashadi. Olimlar (jumladan Alpatov) fikricha, yapon tili agglutinatив, flektivlik tiplarni o'zida qamrab olgan tillar sirasiga kiradi. Yapon tilida ot so'z turkumining ifodalanishi, shuningdek, grammatik qurilishlar deyarli barchasi o'zbek tili kabi agglutinatив tipga xos, flektivlik (rus tiliga xos tip) esa yapon tilining fonologiyasi va morfonologiyasida uchratish mumkin³.

Ikkala qiyoslanayotgan tildagi so'z va gaplarning bog'lanishida ayniqsa bog'lovchilarning ahamiyati katta ekanligi kuzatiladi. Bog'lovchilar- qo'shma gap

¹ М. Т. Дьячок, В. В. Шаповал ГЕНЕАЛОГИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ЯЗЫКОВ (Новосибирск, 2002. 32 с.

² В. М. Алпатов Теоретическая грамматика японского языка. Книга 1.. 2008г.

³ В. М. Алпатов Теоретическая грамматика японского языка. Книга 2.. 2008г.

tarkibidagi sodda gaplar va uyushgan bo‘laklar orasidagi turli munosabatlarni ifodalash uchun qo‘llanadigan yordamchi so‘zlardir. Bog‘lovchilar grammatik jihatdan o‘zgarmaydi va mustaqil leksik ma’no ega emas. Masalan,

1. Qor yog‘di **va** hammayoq oppoq qor bilan qoplandi.
2. Nargiza **va** Madina do‘kondan uyga kerakli narsalarni xarid qilib qaytishdi.

Keltirilgan misollarda “va” bog‘lovchisi gap bo‘laklarini, aniqrog‘i uyushiq egalarni (1-gap) hamda gaplarni (2-gap) o‘zaro teng aloqada bog‘layapti.

Bog‘lovchilar grammatik ma’no va vazifalariga ko‘ra 2 turga bo‘linadi. Bular:

1. Teng bog‘lovchilar.
2. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar.

Gap bo‘laklari va qo‘shma gap qismlarini teng aloqada bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘zlar **teng bog‘lovchilar** deyiladi.

Teng bog‘lovchilar gap bo‘laklari va ayrim sodda gaplar orasidagi teng munosabatlarni ifodalaydi:

- a) gapning uyushiq bo‘laklarini bog‘laydi;
- b) qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog‘laydi.

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar qo‘shma gap tarkibidagi grammatik jihatdan bir-biriga tobelash yo‘li bilan bog‘laydi, shuning uchun ular ergashgan qo‘shma gaplarda ishlatiladi.

Bog‘lovchining mohiyati, o‘zbek adabiy tilidagi bog‘lovchining turi, bu turga oid so‘zlar tilshunosligimizda keng o‘rganilgan. Mavjud adabiyotda bog‘lovchining turi va bu turga qaysi so‘z mansubligi bo‘yicha turli xil nuqtai nazarlar bor. O‘zbek tili grammatikasida bog‘lovchilar sintaktik aloqa vositasi sanalib, ulardan tobe munosabatni ifodalashdan tashqari, teng munosabatni ham hosil qilishi bilan ajralib turadi. Bog‘lovchi gap bo‘laklari, qo‘shma gapning sodda gapga teng qismlari orasidagi turlicha aloqani, grammatik munosabatni ko‘rsatadi.

Yapon tilidagi bog‘lovchilarning o‘zbek tilidagi bog‘lovchilari bilan o‘xshash, shuningdek, farqli jihatlari ham mavjud. Yapon tili nazariy grammatikasiga oid Alpatovning kitoblari hamda hozirgi o‘zbek tiliga oid G‘ani Abdurahmonov kabi bir qator olimlarning kitoblarida bog‘lovchilarning tavsiflanishi asosida shuni ko‘rish mumkinki, bundan o‘zbek tiliga nisbatan yapon tilida so‘z va gaplar orasida turli grammatik munosabatlarni ifodalashda xizmat qiladigan - bog‘lovchilar soni ko‘pligi kuzatiladi.

Bog‘lovchilarga yuqoridagi ta’riflardan tashqari, bu yordamchi so‘z turkumi turli tilda turlicha nomlansa-da, ammo vazifasi jihatidan bir xil ifodalanadi.

Yapon tilida bog‘lovchilar 接続詞 deb ataladi va u ham yordamchi so‘z turkumi tarkibiga kiradi. Ular so‘z, so‘z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog‘lashda xizmat qiladi hamda ular funksional jihatdan farq qiladi. Rus tilidagi manbalar asosida yapon tilida bog‘lovchilar ma’no va vazifasiga ko‘ra, teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilarga bo‘linganini ko‘rish mumkin. Yapon tilidagi manbalarda esa bog‘lovchilar funksional jihatdan ko‘p turga ajratilgani kuzatiladi. Shu sababli yapon manbalarda ko‘makchi deb ko‘rsatilgan bog‘lovchilar rus tili manbalarida bog‘lovchi deb ko‘rsatilgan. Masalan, と, か yordamchi so‘zlari.

Yuqorida aytilgan manbalar asosida Yapon va o'zbek tillarida teng bog'lovchilar va ergashtiruvchi bog'lovchilarni ko'rib chiqqanda, yapon tilida teng bog'lovchilar o'zbek tilidagi kabi 4ta turga bo'linadi, ammo ular biroz farq qiladi⁴: biriktiruvchi (並列), ayiruv-tanlash(選択), zidlov(逆接) va biriktiruv-tushuntiruv(言い換え、例示)

1. Biriktiruvchi bog'lovchilari – bu bog'lovchilar uyushiq bo'laklar va gaplarni bog'laydi. そして、それから、及び oyobi、並びに narabini、し shi, また mata、かつ katsu、尚 nao、と(yapon tili manbalarida u 助詞, ya'ni ko'makchilar tarkibiga kiritiladi)⁵. Ular turli kontekstda turlicha “va, hamda, keyin” kabi tarjima qilinadi. O'zbek tilida bu turdagi bog'lovchilarga esa va, hamda; bilan ko'makchisi kiradi.

Masalan,

昨夜はスープそしてケーキを食べた⁶.

Kecha kechqurun sho'rva hamda (keyin)pirog yedim.

2. Zidlov (to'siqsiz) bog'lovchilar (逆接) - ular ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan uyushiq bo'laklarni yoki gaplarni bog'laydi. Bu bog'lovchilar lekin, ammo, biroq deb tarjima qilinadi. Yapon tilida ular 2ga bo'linadi:

•Old pozitiyali- が、しかし、けれども、けれど、それでも、だが

•Orqa pozitiyali- かわりに (“o'rniga...”, “..lekin..”), 反面/半面 (boshqa tomondan), 一方/一方で (は) shu bilan birga, というより (-dan ko'ra ko'proq)

Masalan,

あのひとは漢字は全然読めません。しかし、会話は上手ですね。

Ana u odam kanjini umuman o'qiy olmaydi, ammo yaxshi suhbatlasha oladi.

3. Ayiruv bog'lovchisi- uyushiq bo'laklarni yoki gaplarni bir-biridan ajratib bog'laydi. Bunda bir vaqtililik ham, galma-gallik ham ifodalanadi, bu bog'lovchilar yo, yoki deb tarjima qilinadi: 又は、或は、もしくは、か、や. O'zbek tilida, yo, yoki, yoxud, yoinki, goh..., goh, dam..., dam, bir..., bir, ba'zan..., ba'zan, xoh..., xoh kabi turlari mavjud.

Masalan,

鍋は熱くなったら、バターまたはサラダ油で牛肉を炒めてください。

Qozon qizisa, sariyog` yoki salat yog`ida mol go`shtini qizartirib oling.

⁴ Б.П. Лаврентьев «Практическая грамматика японского языка» Москва. 2002г.

⁵ 庵 功雄・高梨信乃・中西久美子・山田敏弘 2001. 『中上級を教える人のための日本語ハンドブック』 2008

⁶ 庵功雄、高梨信乃、高西久美子、山田敏弘 「初級を教える人のための日本語文法ハンドブック」株式会社スリーエーネットワーク・2000 年

4. Biriktiruv-tushuntiruvchi bog'lovchi- bu bog'lovchi turi yapon tilida kuzatilib, o'zbek tilida u aniqlov bog'lovchisiga yaqin turadi. Unda oldinda kelgan fikr yoki gapni ifodalashda bular yordamchi vazifani bajaradi.

つまり tsumari (ya'ni, boshqacha aytganda)、すなわち、ただし、もっとも kabilar kiradi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar esa yapon tilida o'zbek tilidan qisman farq qiladi. U o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi:

- Sabab bog'lovchilari(理由述べ)- qo'shma gap tarkibidagi gaplarni sabab ma'nosi bilan bog'laydi. Ularga chunki, shuning uchun, shu tufayli, shu sababli, negaki bog'lovchilari kiradi. Yapon tilida ular gapda joylashishiga qarab **Oldpozition:** なぜなら, **Postpozition:** から, ので, ため(に) turga bo'lingan.
- Natijaviy bog'lovchilar (原因・理由型)- qo'shma gap tarkibidagi gaplarni biror sabab tufayli vujudga kelgan natijada izohlab, ma'nosi bilan bog'laydi. だから、したがって (dakara, deskara, shitagatte) - Shu sababli, binobarin, demak deb tarjima q. O'zbek tilida bu bog'lovchilar barchasi sabab bog'lovchilariga kiritiladi.
- To'siqsiz-ayiruv bog'lovchi(逆接) - qo'shma gap tarkibidagi gaplarni bir-biridan ayiruv ma'nosini ifodalab ko'rsatadi. のに, からといって(も), くせに, くせして- ga qaramay;
- Izohlovchi bog'lovchilar - と, という, というのは- qo'shma gap tarkibidagi gaplarni birini ikkinchisiga izohlab, tushuntirish orqalima'nosini ifodalab ko'rsatadi.
- Vaqtni ifodalovchi bog'lovchilar.- 時, まで - bunda qo'shma gap tarkibidagi gapning birinchi qismida yuz bergan payt, ikkinchi gapda esa o'sha payt asosida yuzaga kelgan holatni izohlab keladi.

O'zbek tilida esa aniqlov bog'lovchisi, sabab bog'lovchisi, maqsad bog'lovchisi, chog'ishtiruv bog'lovchilari hamda shart va to'siqsizlik bog'lovchilaridan kiradi va yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, farqli va o'xshash tomonlari kuzatiladi.

Shunday qilib, yapon va o'zbek tilida bog'lovchilarni qiyoslash natijasida, ularning o'xshash va farqli belgilari mavjudligi kuzatiladi.

Bunda ularning o'xshash belgilari sirasiga:

- Bog'lovchilar ikki tilda ham yordamchi so'z turkumi tarkibiga kiradi;
- Ular grammatik ma'no va vazifasiga ko'ra bo'linishi; til universalisiya

Farqli jihatlari

Yapon va o'zbek tillarida bog'lovchilar so'z va gaplar orasida grammatik munosabatlarni ifodalar ekan, bog'lovchilarning turi, vazifasi turlicha ekanligi kuzatiladi. Yapon tilida bog'lovchilar ma'no va vazifasi jihatdan bo'linar ekan, bitta guruh tarkibiga kiruvchi bog'lovchilar kontekstda joylashuvi, og'zaki yoki yozma nutqda qo'llanilishi, o'zni va ahamiyati jihatdan alohida ishlatilib, birini ikkinchisi o'rniga qo'yib bo'lmaydigan holatlar juda ko'p. Masalan, yapon tilida zidlov bog'lovchisi tarkibiga kiruvchi が , しかし bog'lovchilarini olganda, ularning ikkalasi ham zidlov ma'nolari ifodalaydi, ammo kontekstda ularni bir-biridan farqlash mumkin:

1. 彼は教授ですが、私は助手です。

U professor-u, men esa assistent (yordamchi)

2. あのひとは漢字は全然読めません。しかし、会話は上手ですね。

Ana u odam kanji o'qishni umuman bilmaydi, ammo yaxshi so'zlasha oladi.

Bu yerda 1-gapda zidlov bog'lovchisi fe'lga qo'shilib, undan keyin tinish belgisi qo'yilgan, 2-gapda esa zidlov bog'lovchisi oldidan hamdan undan keyin ham tinish belgilari bilan ajratilib gaplarni bir-birga bo'g'lashi kuzatiladi. Shu kabi holatlar yapon tili bog'lovchilari tarkibida juda ko'p kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'. A. Abdurahmonov, SH.SH. Shoabdurahmonov. O'zbek tili grammatikasi II tom. T. 1976yil
2. Abdug'afforov I. F. "O'zbek tili grammatikasi" Toshkent 1999-yil.
3. М. Т. Дьячок, В. В. Шаповал ГЕНЕАЛОГИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ЯЗЫКОВ (Новосибирск, 2002.
4. В. М. Алпатов Теоретическая грамматика японского языка. Книга 1. 2008г.
5. В. М. Алпатов Теоретическая грамматика японского языка. Книга 2. 2008г.
6. Б.П. Лаврентьев «Практическая грамматика японского языка» Москва. 2002г.
7. 庵 功雄・高梨信乃・中西久美子・山田敏弘 2001. 『中上級を教える人のための日本語ハンドブック』 2008
8. 庵功雄、高梨信乃、高西久美子、山田敏弘 「初級を教える人のための日本語文法ハンドブック」株式会社スリーエーネットワーク・2000年

